

## **Yodi hamisha yodda**

Ziyoratning ziyyosidan bahramand bo'lishning hikmati ko'p. Qalbga ziyorat inson xotirasiga munosabat demakdir. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti, "Gidromelioratsiya" fakulteti, "Suv xo'jaligi va melioratsiya" ta'lif yo'nalishi, 2-bosqich, 203-guruh talabalari guruh murabbiyi D.G.Yulchiyev rahbarligida O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimov xotirasini yod etib, "Islom Karimov nomidagi ilmiy-ma'rifiy memorial majmuasi"ga tashrif buyurishdi. Islom Karimov O'zbekistonda amalga oshirilgan ulkan ishlar, tarixiy o'zgarishlarning tashabbuskori va rahnamosi, mamlakatning istiqlol dasturini ishlab chiqqan va milliy taraqqiyot yo'lini belgilab bergen atoqli davlat arbobidir.

Tashrif davomida Birinchi Prezidentimiz monumenti poyiga gul qo'yilib, ulug' insonning beqiyos xizmatlari aks ettirilgan fotosuratlar, videolavhalar talabalarda katta qiziqish uyg'otdi.



**Gidromelioratsiya fakulteti “Irrigatsiya va melioratsiya” kafedrasи assistenti D.G.Yulchiyev  
axboroti**

**Institut matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov**